
Toshloq tumani Xonariq MFYda tuman hokimligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi hamda Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi bilan hamkorlikda mahalla aholisi uchun "Mustaqillik oqshomlari" nomli madaniy-ma'rifiy konsert dasturi

Tadbirda tuman hokimi o'rinbosari Elmurodxon Madaminov mahalla ahlini eng ulug' va eng aziz bayram bilan qizg'in tabrikladi hamda Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan yoshlarni kelgusi ishlariga omad tiladi.

Davlatimiz mustaqilligining 33 yillik bayrami bilan ushbu mahalladan yangi o'quv yilida talabalar safiga qabul qilingan 33 nafar yoshlarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Tadbir davomida yoshlarni sportga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida sportning "Belbog'li kurash" turi bo'yicha musoboqa bo'lib o'tdi. Unda Toshloq, Rishton, Bog'dod va Yozyovon tumanlaridan kelgan sportchilar ishtirok etdilar. Kurash 5 ta vazn toifasida bo'lib o'tdi. Yakunda g'olib bo'lgan sportchilar munosib taqdirlandilar.

2024-08-27 16:57:45